

ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA MILLIY RUH

(Javlon Jovliyev, Jasur Kengboyev hikoyalari misolida)

*G'ofurova Dildora Ravshan qizi**ToshDO'TAU Adabiyot nazariyasi 2-kurs magistri**dildoragd@gmail.com +998935405758*

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy o'zbek hikoyachiligida milliy ruh va milliy qadriyatlar masalasini aks ettiradi. Maqolada milliy qadriyatlar va an'analarning zamonaviy hikoyalardagi aks etishi, ularning o'ziga xosligi, shuningdek, asarlardagi milliy ruh va qahramonlarning ruhiyati o'rtasidagi mutanosiblik o'rganiladi. Maqolada milliylik tushunchasining nazariy asoslari, milliy qadriyatlarning madaniy va tarixiy ildizlari hamda zamonaviy o'zbek adabiyotidagi roli tahlil qilinadi. Javlon Jovliyev va Jasur Kengboyev asarlari misolida milliy ruhning zamonaviy ko'rinishlari va uning nasr san'atidagi ahamiyati chuqur yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliy ruh, milliy qadriyatlar, zamonaviy o'zbek nasri, Javlon Jovliyev, Jasur Kengboyev, milliy o'zlik, madaniy meros, adabiy tahlil, zamonaviy o'zbek adabiyoti, ruhiy tasvir.

Abstract: This article explores the theme of national spirit and national values in contemporary Uzbek prose. It examines the reflection of national values and traditions in modern stories, their uniqueness, as well as the correlation between the national spirit and the psychological states of the characters.

The theoretical foundations of the concept of nationality, the cultural and historical roots of national values, and their role in contemporary Uzbek literature are analyzed. Using the works of Javlon Jovliyev and Jasur Kengboyev as examples, the article highlights the modern manifestations of the national spirit and its significance in prose art.

Keywords: national spirit, National values, Contemporary Uzbek prose, Javlon Jovliyev, Jasur Kengboyev, National identity, Cultural heritage, Literary analysis, Modern Uzbek literature, Psychological portrayal.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti asarlarida milliy qadriyatlar ko'pincha insonlarning ichki kechinmalari, jamiyatdagi o'zgarishlar va global jarayonlar kontekstida o'rganiladi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar zamonaviylik bilan uyg'unlashib, milliylikning yangi ko'rinishlarini yaratadi. Bu esa adabiyotning faqat tarixiy yoki folkloriy qiyofasidan chiqib, zamonaviy jamiyatning murakkab ruhiy-ijtimoiy muammolarini aks ettirish imkonini beradi. Natijada, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy badiiy usullar bilan boyitish o'zbek adabiyotining rivojlanishi uchun muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi milliy ruhni ifodalashda o'ziga xos o'rin tutadi.

Milliy ruh – bu xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari, urf-odatlar va milliy ongining badiiy ifodasidir. Hikoyachilikda esa bu ruh qahramonlarning xarakteri, voqealar rivoji va muhit orqali ko'rsatiladi. Mustaqillik davrida o'zbek hikoyachiligi yangi bosqichga ko'tarilib, milliy qadriyatlarni zamonaviy kontekstda talqin qilish imkoniyatini oldi. Hikoyachilar insonning ichki dunyosini, uning jamiyatdagi o'rni va zamonaviy

muammolarni milliy ruh bilan uyg'unlashtirib, yangi obrazlar yaratishga intiladi. Bu jarayon milliylik va umuminsoniylik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Zamonaviy hikoyachilikda milliy ruh nafaqat tarixiy voqealar yoki an'anaviy madaniyat elementlari orqali, balki inson qalbining murakkab kechinmalari, axloqiy izlanishlari va jamiyatdagi o'zgarishlar doirasida ifodalanadi. Javlon Jovliyev va Jasur Kengboyev kabi yozuvchilar asarlarida milliy ruhning zamonaviy ko'rinishlari yaqqol sezilib, ularning badiiy dunyosi xalqning tarixiy va ma'naviy merosini zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ularning hikoyalari milliy qadriyatlarni yangi estetika va gumanizm mezonlarida yangilab, o'quvchini chuqur tafakkurga chorlaydi.

Shunday qilib, zamonaviy o'zbek hikoyachiligi milliy ruhni asrab-avaylab, uni bugungi kunning murakkab realiyatlariga moslashtirish orqali milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirishda muhim vazifa bajaradi.

Javlon Jovliyev va Jasur Kengboyev o'zbek adabiyotining zamonaviy hikoyachiligi sohasida milliy ruhni ifodalashda muhim o'rin egallaydi. Ularning asarlari milliy qadriyatlar, urf-odatlar va xalqning ma'naviy olami bilan chambarchas bog'liq bo'lib, badiiy jihatdan chuqur va ko'p qirrali tasvirlarni taqdim etadi.

Javlon Jovliyev hikoyalarining asosiy kuchi — uning obrazlarida. Masalan, "Qo'rqma" asaridagi bosh qahramon o'zligini izlab, tarixiy xotira sari sayr qiladi. Bu obraz orqali yozuvchi milliylikni o'tmishga nazar, ajdodlarga hurmat va ma'naviy merosni anglash orqali ko'rsatadi. Obrazlar odatiy emas — ular zamonaviy, lekin ich-ichidan xalq ruhi bilan yashaydi.

Yana bir jihat — ayol obrazlaridagi milliylik. Ular shunchaki obraz emas, ular sabr-toqat, mehr, or-nomus ramzi. O'zbek ayoli qanday bo'lishi kerak degan savolga yozuvchi badiiy javob beradi. Bu javob esa zamonaviylik bilan uyg'un.

Xususan, "Jilovdoshim" hikoyasida aynan turkiy birlik mavzusi badiiy talqin etilgan. "Raddi balo bo'lsin Turkistonga" degan ibora bilan boshlanuvchi ushbu hikoyada turkiy xalqlarning mushtarak ildizlari, ularning tarixiy fojialari, milliy qahramonlari — xususan, "Afrosiyob" kabi timsollarni tarix sahnasidan yo'qotish harakatlari, o'z tariximizni "chin" — ya'ni ishonchli manbalar orqali tiklash zaruriyati haqida so'z yuritiladi. Muallif, shuningdek, turkiy xalqlarning dunyo bo'ylab tarqalib ketgani, sovet davridagi "milliy chegaralanish" siyosati oqibatida Turkiston birligi parchalanganini tanqidiy ruhda yoritadi. Hikoyada Turkiston timsolida ifodalangan turkiy birlik g'oyasi ramziy va obrazli vositalar orqali chuqur ochib berilgan.

"...Jilovdoshim" hikoyasi to'plamdagi Vatan, millat mavzusiga bag'ishlangan boshqa hikoyalardan farqli ravishda xalqimizning tarix qatlamlariga murojaat qiladi. Hikoyada qadim turkiy qabilalar davridan tortib, mutaqqillik yillaridagi mamlakat qiyofasi ham o'zining ifodasini topgan. Asarda bosh obrazlardan biri sifatida qudratli Turkiston gavdalantiriladi. Turon zaminining bir paytlar ulug' davlat, katta kuchga ega millat bo'lganini tarixiy dalillar keltirib, tasvir etadi. Jilovdosh hikoyada millatdosh, vatandosh sifatida butun hikoya davomida roviyga hamrohlik qiladi. Bu uslub orqali muallif barcha zamonlarda o'zining millatdoshiga, vatandoshiga murojaat qila olish imkoniyatini yaratadi¹.

E'tiborlisi shundaki, yozuvchi hikoya davomida o'quvchiga bevosita "Jilovdoshim" deb murojaat qiladi. Bu esa muallifning o'quvchi bilan yaqin ruhiy bog'liqligini ta'minlash

1 To'laboyeva R. Hikoyalarda vatan konsepsiyasi. (Mustaqillik davri yosh nosirlari ijodidan: Javlon Jovliyev hikoyalari misolida.). Maqola. – B. 101.

barobarida, milliy birlik g'oyasini har bir yurtdosh yuragiga yetkazish istagini ifodalaydi. "... Osoyishta damlar edi, bir kun el boshiga dushman kelib alla aytayotganini ko'rib qoldim.

- Ey, sen qaysi tilda alla aytyapsan?
- Turkiyda.
- Bundan maqsading ne?
- Turkistonni uxlatmoq...
- Ilohim, bu so'zing ko'zingga mil bo'lib tortilsin...2"

Jilovdoshim hikoyasida barcha turkiy xalqlarning ildizi bir ekanligi, turkiy xalqlar boshiga kelgan balolar, Afrosiyob kabi milliy qahramonlar nomini tarixdan o'chirishga harakatlar, turkiy xalqlarning yer yuzining turli joylariga tarqab ketganligi, sho'ro davrida Turkistonning "milliy chegaralanish" tadbirini boshdan o'tkazganligi, Turkiston, ya'ni turkiy birlik g'oyasi obrazli tarzda ochib berilgan. "... Bu ikki daryo – ikki tomirlar orasi olamning qadim tamaddun markazi bo'lgan. Tigr va Evfrat daryolari orasida shakllangan madaniyatlari kabi ulug'dir. Ularniki Shumer, Akkad, Bobil bo'lsa bizniki Turon, Turkistondir. Bu maskan butun turklarga Ota – Vatandir3".

Jilovdoshim hikoyasida turkiy xalqlarning yagona ildizdan tarqalgani, ularning boshiga tushgan musibatlar va tarixiy haqiqatlar badiiy ifoda topgan. Asarda muallif Afrosiyob kabi milliy qahramonlarning tarix sahnasidan chiqarishga bo'lgan urinishlarni tanqid ostiga olgan. "Abut-Turk Alp Er To'nga qadim cho'pchak emas, qadim haqiqatdir"... "Xatto, vaqt o'tib Alp Er To'nga, yani Afrosiyobni tarixiy shaxs sifatida yo'qotishga ham urinishgan. Bu zotni "tarixda bo'lmagan", "u bir afsona", "to'qib chiqarilgan cho'pchak" degan qarashlar shundan paydo bo'lgan4". Shuningdek, Sho'ro davrida Turkiston hududining sun'iy ravishda bo'lib tashlanishi, bu orqali turkiy xalqlarning birligini zaiflashtirish siyosati fosh etiladi. Turkiy xalqlarning dunyoning turli burchaklariga sochilib ketgani esa tarixiy zarurat va bosqinlar oqibati sifatida ko'rsatilgan. Asarda "Turkiston" timsoli orqali turkiy birlik, o'zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklash g'oyalari ramziy tarzda yoritilgan. "Qadim kitoblarda turkiy xalqlarning nomlari o'zlari kabi ko'p va xo'b yozilgan... Nomlar va bo'linishlar borasida biror xalq turklarga teng kelolmasa kerak. Ko'piga hozir tilimiz kelishmaydi... Qipchoq, o'g'uz, yemak, boshqird, basmil, qayi, yabqu, tatar, qirg'iz, chigil, to'xsi, yag'mo, ug'roq, charuq, cho'mil, uyg'ur, tungtun, xitay...bo'ldi...bo'ldi... 5".

"Jilovdoshim" hikoyasi – bu shunchaki badiiy asar emas, balki tarix, milliy ong va birlik haqida chuqur falsafiy mushohadadir. Unda muallif turkiy xalqlarning tarixiy fojialari orqali bugungi kun uchun muhim bo'lgan – **birlik, o'zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklash** g'oyalarini ilgari suradi.

Jasur Kengboyevning ijodida esa milliy ruh shaxsning jamiyat bilan munosabati, urf-odatlar va zamonaviy hayotning murakkabliklari orqali ifodalanadi. "Hadik" hikoyalar to'plamida muallif milliy qadriyatlarni zamonaviy insonning ruhiy holati, uning ijtimoiy o'rnini anglash jarayoni bilan uyg'unlashtirib, bugungi kun o'zbek jamiyatining muammolarini ko'rsatadi. Har ikkala yozuvchining asarlari milliy ruhni nafaqat tarixiy yoki madaniy kontekstda, balki inson qalbining ichki dunyosi va zamonaviylik o'rtasidagi murakkab aloqalar nuqtai nazaridan yoritadi. Bu esa o'zbek hikoyachiligida milliylikning yangi, yanada chuqur va ko'p qirrali talqini sifatida qabul qilinadi.

2 Jovlijev J. Onam va koinot. Hikoyalar. - T.: Anorbooks, 2022. – 62 b.

3 Jovlijev J. Onam va koinot. Hikoyalar. - T.: Anorbooks, 2022. – B. 58.

4 Jovlijev J. Onam va koinot. Hikoyalar. - T.: Anorbooks, 2022. – B. 63.

5 Jovlijev J. Onam va koinot. Hikoyalar. - T.: Anorbooks, 2022. – B. 55.

Shu tariqa, Javlon Jovliyev va Jasur Kengboyev asarlari zamonaviy o'zbek hikoyachiligida milliy ruhning rivojlanishi va ifodalanishida muhim manba hisoblanadi. Jasur Kengboyevning **"Mung"** hikoyasida **milliy ruh va sharqona estetik tafakkur** ustuvor mavzulardan biri sifatida ilgari suriladi. Yozuvchi asarda milliylikni ifodalovchi obrazlar, timsollar va tafsilotlar orqali o'zbek xalqiga xos turmush tarzini, ruhiyatini, qadriyatlarini chuqur badiiy ifodalaydi. Masalan, hikoya boshida keltirilgan: "Bir zumda darvoza ohista ochilib, shoyi ro'mol o'ragan ayolning qorasi ko'rindi"⁶ degan satr, shunchaki manzara emas, balki **o'zbek ayolining or-nomusi, iffat timsoli, milliylik belgisi** sifatida talqin qilinadi. Bu kabi detallar orqali adib xalqimiz ruhiyatini va milliylikni sezgirlik bilan ochib beradi. Asar so'nggida o'z xatolari og'irligidan qutula olmayotgan, kechirim umidida yashayotgan, hayotga tashna tog'aning ichki dunyosi, **ko'zlaridagi mung**, yillar davomida yutib kelgan armoni kuchli badiiy ifodaga ega. Ayniqsa, **"Yanga" obrazining mehrbonligi bilan aralashgan qat'iyati**, uning qalbida saqlanayotgan og'riq va muhabbat birikmasi sharq ayoliga xos sabr-bardosh va matonat ramzi sifatida ilgari suriladi. Bu orqali muallif o'zbekona ruhiy olamni va ayol obrazidagi milliy qadriyatni badiiy mukammallik bilan ifodalashga erishgan. Shuningdek, hikoyada **Abdul Nosir** obrazining kiritilishi, uning kengliklarga, dasht hayotiga, polvon cho'ponlar gurungiga, xalqona mehfil va to'y-ko'pkarilarga intilishi bevosita o'zbek milliy mentalitetining tarkibiy qismi sifatida e'tiborni tortadi.

Milliy ruh zamonaviy o'zbek hikoyachiligida qanday o'rin tutadi?

Milliy ruh zamonaviy o'zbek hikoyachiligida nafaqat badiiy-madaniy jarayonning asosiy tayanch nuqtasi, balki asarlarning ma'naviy va ruhiy ildizi hisoblanadi. Hikoyalar orqali ifodalangan milliy ruh o'zbek xalqining tarixiy tajribalari, an'analari va qadriyatlarini aks ettiradi. Bu esa yozuvchilarga milliy o'zlikni chuqurroq anglash, uni zamonaviy kontekstda ifodalash imkonini beradi. Milliy ruh, o'z navbatida, o'quvchida millatga bo'lgan mehr-muhabbatni uyg'otadi, tarix va madaniyatga hurmat tuyg'usini oshiradi.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti milliy qadriyatlarni faqat tarixiy yoki madaniy ramz sifatida emas, balki insoniylik, adolat, erkinlik, mehr-shafqat kabi umuminsoniy g'oyalarga bog'liq holda talqin qiladi. Bu yondashuv orqali adabiyot milliylikni zamon va makondan ustun, barcha insonlar uchun dolzarb bo'lgan qadriyatlar tizimida ko'rsatadi. Natijada, milliy ruh asarlarida insonning ichki kechinmalari, ruhiy uyg'onishi, shaxsiy va ijtimoiy muammolari bilan bog'liq holda ochiladi. Shu tarzda zamonaviy adabiyot milliylik va umuminsoniylikni birlashtirib, xalq madaniyati va insoniyat umumiy madaniyatini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov B. Istiqlol adabiyoti: Nazm va nasr. "Firdavs-shoh nashriyoti". Toshkent – 2021.
2. Jovliyev J. Onam va koinot. – T.: Anorbooks, 2022
3. Kengboyev J. Yurakning bir cheti. – G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
4. To'laboyeva R. Hikoyalarda vatan konsepsiyasi. (Mustaqillik davri yosh nosirlari ijodidan: Javlon Jovliyev hikoyalari misolida.). Maqola. – B. 101.

⁶ Kengboyev J. Hadik. Hikoyalar. – T.: "Read book" nashriyoti, 2024. – B. 142.